Tuxtayeva Nilufar Achilovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston; pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); nilufartuxtayeva0609@gmail.com)

CLIL TEXNOLOGIYASINI ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR BILAN INTEGRATSIYALASH ASOSIDA KASBIY-METODIK DARSLARNI LOYIHALASH

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda CLIL texnologiyasini zamonaviy metodik yondashuvlar bilan integratsiyalash asosida kasbiy-metodik darslarni loyihalash masalasi tadqiq etilgan. CLILning Content, Communication, Cognition va Culture komponentlari TBLT, PBL/PBLL, muammoli ta’lim, case-based learning, microteaching hamda raqamli vositalarning didaktik funksiyalari bilan o‘zaro muvofiqlashtirilgan. Tahlil natijasida kasbiy-metodik darslarni maqsadli integratsiya → mazmunni tanlash → metodik yondashuvni funksional tanlash → integrativ topshiriqni loyihalash → kasbiy-kommunikativ amalga oshirish → refleksiya va korreksiya asosida tashkil etish mexanizmi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan mexanizm bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik bilimlarini kasbiy vaziyatlarda amaliy qo‘llashga yo‘naltirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *CLIL texnologiyasi, kasbiy-metodik tayyorgarlik, darsni loyihalash, TBLT, PBL, microteaching, metodik integratsiya, refleksiv faoliyat.*

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ТЕХНОЛОГИИ CLIL С СОВРЕМЕННЫМИ МЕТОДИЧЕСКИМИ ПОДХОДАМИ

Аннотация. *В статье рассматривается проектирование профессионально-методических занятий на основе интеграции технологии CLIL с современными методическими подходами в подготовке будущих учителей английского языка. Компоненты CLIL – Content, Communication, Cognition и Culture – функционально соотнесены с TBLT, PBL/PBLL, проблемным обучением, case-based learning, микрообучением и цифровыми средствами. В результате анализа разработан механизм проектирования занятий, включающий целевую интеграцию, отбор содержания, функциональный выбор методического подхода, проектирование интегративного задания, профессионально-коммуникативную реализацию, рефлексию и коррекцию. Предложенный механизм ориентирует методическую подготовку на практическое применение знаний в профессиональных ситуациях и обеспечивает взаимосвязь языкового, методического, когнитивного и практического аспектов подготовки будущего учителя.*

Ключевые слова: *технология CLIL, профессионально-методическая подготовка, проектирование занятия, TBLT, PBL, микрообучение, методическая интеграция, рефлексивная деятельность.*

DESIGNING PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL LESSONS THROUGH THE INTEGRATION OF CLIL WITH CONTEMPORARY METHODOLOGICAL APPROACHES

Annotation. *The article examines the design of professional and methodological lessons through the integration of CLIL with contemporary methodological approaches in pre-service English teacher education. The Content, Communication, Cognition, and Culture dimensions of CLIL are functionally coordinated with TBLT, PBL/PBLL, problem-based learning, case-based learning, microteaching, and digital tools. The analysis resulted in a lesson-design mechanism comprising goal-oriented integration, content selection, functional selection of a methodological approach, integrative task design, professional-communicative implementation, reflection, and refinement. The proposed mechanism shifts methodological learning from the reproduction of theoretical knowledge towards its purposeful application in professional situations and provides a systematic framework for integrating language, methodological content, cognitive activity, and pedagogical practice in pre-service English teacher education.*

Keywords: *CLIL, professional and methodological preparedness, lesson design, TBLT, PBL, microteaching, methodological integration, reflective practice.*

Kirish. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni chet tilini egallash bilan bir qatorda, pedagogik vaziyatni tahlil qilish, ta’lim maqsadlarini belgilash, o‘quv materialini tanlash va moslashtirish, metodik qaror qabul qilish, topshiriqlarni loyihalash hamda o‘z pedagogik faoliyati natijalarini baholash kabi o‘zaro bog‘liq faoliyatlarni ham qamrab oladi. Shu sababli oliy ta’limdagi metodik tayyorgarlikning samaradorligi talabaning muayyan metod yoki texnologiya haqidagi nazariy bilimlari hajmi bilangina emas, ushbu bilimlardan konkret pedagogik vaziyatni loyihalash va amalga oshirishda qay darajada maqsadli foydalana olishi bilan belgilanadi.

Mazkur holat metodik fanlarni o'qitishda nazariya va amaliyot o'rtasidagi aloqani kuchaytirish zaruratini yuzaga keltiradi. Talaba kommunikativ yondashuv, task-based language teaching, project-based learning yoki boshqa zamonaviy metodlar mohiyatini izohlab bera olishi mumkin, biroq kasbiy tayyorgarlik nuqtayi nazaridan, asosiy natija metodning ta'rifini bilish emas, balki *qaysi pedagogik vaziyatda, qanday maqsadda va qanday natijaga erishish uchun undan foydalanish kerakligini asoslay olish* bilan namoyon bo'ladi.

CLIL texnologiyasi ushbu masalaga integrativ nuqtai nazardan yondashish imkonini beradi. Coyle, Hood va Marsh tomonidan ishlab chiqilgan 4C konsepsiyasida Content, Communication, Cognition va Culture bir-biridan ajratilgan elementlar sifatida emas, ta'lim jarayonining o'zaro bog'langan o'lchamlari sifatida talqin qilinadi [1]. Bunday yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda metodik mazmunni ingliz tilida o'zlashtirish, uni kognitiv faoliyat orqali qayta ishlash va kasbiy-pedagogik vaziyatda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, CLILni metodik tayyorgarlik jarayoniga joriy etish unga imkon qadar ko'p pedagogik metodlarni qo'shish degani emas. Turli metod va yondashuvlarning mexanik birlashtirilishi dars tuzilishini murakkablashtirishi, maqsadlar o'rtasidagi aloqani zaiflashtirishi va metodik vositani maqsadning o'rniga olib chiqishi mumkin. Shuning uchun CLIL va zamonaviy metodik yondashuvlar integratsiyasi, avvalo, ularning *funksional muvofiqligi* asosida amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi CLIL texnologiyasining integrativ imkoniyatlarini TBLT, PBL/PBLL, problem-solving, case-based learning, microteaching va raqamli ta'lim vositalarining didaktik funksiyalari bilan muvofiqlashtirish hamda shu asosda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga mo'ljallangan kasbiy-metodik darslarni loyihalash mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. CLILning konseptual asoslari D Coyle, P.Hood va D.Marsh tadqiqotlarida mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish tamoyillari asosida yoritilib, 4C modeli uning didaktik tuzilishini belgilovchi konseptual asos sifatida taklif etilgan [1]. P.Mehisto, D.Marsh va M.J. Frigols CLILni amalga oshirishda mazmuniy va lingvistik maqsadlarning muvofiqligi, faol o'quv faoliyati, scaffolding va kognitiv murakkablikni hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratadilar [2].

CLILning o'qituvchi tayyorlash tizimidagi imkoniyatlari esa alohida metodik masalani tashkil qiladi. O'qituvchi integratsiyalashgan darsni tashkil etishda nafaqat predmet yoki til mazmunini bilishi, balki ular o'rtasidagi didaktik aloqani aniqlashi, til yordamini rejalashtirishi va o'quvchilarni turli darajadagi kognitiv faoliyatga jalb qilishi zarur. So'nggi teacher-education tadqiqotlari ham CLILni o'zlashtirish faqat uning nazariy prinsiplarini bilish bilan tugamasligini ko'rsatmoqda. Masalan, CLIL teacher education bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda pedagogik bilimni amaliyotga ko'chirish, hamkorlik, darsni loyihalash va refleksiya alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Task-Based Language Teachingda o'quv faoliyatining markaziga kommunikativ natijaga yo'naltirilgan vazifa qo'yiladi. Bu xususiyat CLILning Communication va Cognition o'lchamlari bilan funksional bog'lanish imkonini beradi. T-CLIL asosidagi bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligiga oid tadqiqotlarda TBLT bo'yicha nazariy mazmun, namuna, amaliy faoliyat va mustaqil dars loyihalashning birlashtirilgani ham mazkur aloqaning teacher education sharoitida qo'llanish imkoniyatini ko'rsatadi.

Project-Based Learning esa mazmunni uzoqroq davom etadigan amaliy muammo yoki loyiha atrofida tashkil etishi bilan CLILning Content, Communication va Cognition elementlarini yagona faoliyatga jalb etish imkonini beradi. PBL va CLILni birgalikda qo'llashga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham mazmunni o'zlashtirish, til faoliyati, hamkorlik va muammoli vazifalar o'rtasidagi aloqadorlik qayd etilgan [5]. Zamonaviy CLIL–PBL tayyorlov dasturlarida dars dizayni, scaffolding, baholash va raqamli vositalar ham integratsiyaning muhim qismlari sifatida qaralmoqda.

Biroq mavjud metodlarni bir darsga jamlashning o'zi integrativ ta'limni vujudga keltirmaydi. CLIL va TBLTni birlashtirib dars loyihalashga oid ishlar ham integratsiyada metodlarning nazariy mosligi bilan bir qatorda konkret lesson-design qarorlari zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik tayyorgarligida integratsiyaning asosiy birligi *metod emas, kasbiy-metodik vazifa* bo'lishi maqsadga muvofiq. Metod va texnologiyalar esa ushbu vazifani bajarish uchun funksional mezon asosida tanlanishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega bo'lib, unda ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish, funksional tahlil, pedagogik loyihalash va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini integrativ, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarning o'zaro aloqadorligi tashkil etdi.

Tahlil birligi sifatida alohida metod yoki texnologiya emas, balki *kasbiy-metodik darsning pedagogik vazifasi* qabul qilindi. Bunday pozitsiya TBLT, PBL/PBLL, problem-solving, case-based learning, micro-teaching va raqamli vositalarni o'zaro raqobat qiluvchi metodlar sifatida emas, CLIL asosidagi darsning turli didaktik vazifalarini amalga oshiruvchi vositalar sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijasida CLILni zamonaviy metodik yondashuvlar bilan integratsiyalashda ikki xil darajani farqlash zarurligi aniqlandi. Birinchi daraja *konseptual integratsiya* bo'lib, bunda Content, Communication, Cognition va Culture dars maqsadlari va mazmunini muvofiqlashtiradi. Ikkinchi daraja *operatsion integratsiya* bo'lib, unda muayyan metod yoki faoliyat 4C maqsadlarini amalda bajarishga xizmat qiladi.

Bu farqlash CLIL va boshqa metodlarning maqomini aniqlashtiradi. CLIL darsdagi navbatdagi "metod" sifatida emas, mazmun, til, tafakkur va kontekst aloqasini belgilovchi *integrativ asos* sifatida namoyon bo'ladi. TBLT, PBL/PBLL, case-based learning, problem-solving va microteaching esa mazkur integratsiyani konkret o'quv faoliyatiga aylantiradi.

Maqsadli integratsiya bosqichida o'qituvchi dars yakunida talaba qanday metodik mazmunni egallashi, undan ingliz tilida qanday foydalanishi va qanday kognitiv operatsiyani amalga oshirishi kerakligini belgilaydi. Shunday qilib, dars maqsadi "TBLTdan foydalanish" yoki "PBLni qo'llash" tarzida emas, talabaning kuzatiladigan kasbiy-metodik faoliyati orqali ifodalanadi.

Mazmunni tanlash bosqichida "Ingliz tili o'qitish metodikasi" fanining muayyan mavzusi kasbiy vazifa bilan bog'lanadi. Masalan, *Teaching Vocabulary* mavzusida nazariy mazmun leksik birliklarni o'qitish tamoyillarini bilish bilan chegaralanmaydi. Talaba muayyan o'quvchilar guruhi uchun leksik materialni tanlashi, ehtimoliy qiyinchiliklarni aniqlashi va mazkur birliklarni kommunikativ faoliyatga olib kiruvchi topshiriqni loyihalashi talab etiladi.

Metodik yondashuvni funksional tanlash bosqichida esa *"qaysi zamonaviy metodni darsga kiritish mumkin?"* degan savol o'rniga "belgilangan kasbiy-metodik natijaga qaysi faoliyat orqali erishiladi?" degan savol ustuvor bo'ladi. Agar talabadan aniq kommunikativ natijaga ega topshiriq yaratish talab qilinsa, TBLT; murakkab pedagogik muammoning yechimini ishlab chiqish talab qilinsa, problem-solving yoki case-based learning; yakuniy metodik mahsulot yaratish ko'zda tutilsa, PBL/PBLL; ishlab chiqilgan fragmentni amalda sinash zarur bo'lsa, microteaching maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu yerda metod tanlashning mezoni uning "zamonaviyligi" emas, *pedagogik funksiyasi* hisoblanadi. Mazkur qoida metodik eklektizmning oldini olib, bir darsga ortiqcha metodlarni sun'iy ravishda joylashtirish ehtiyojini kamaytiradi.

Integrativ topshiriqni loyihalash taklif etilayotgan mexanizmning markaziy bosqichidir. Bunday topshiriq kamida uch faoliyatni birlashtiradi: metodik mazmun bilan ishlash, ingliz tilidan kasbiy vosita sifatida foydalanish va metodik mahsulot yoki qaror yaratish.

Kasbiy-kommunikativ amalga oshirish bosqichi ishlab chiqilgan metodik mahsulotni muhokama, presentation, peer teaching yoki microteaching orqali amaliy faoliyatga olib chiqadi. Microteachingning ayniqsa bo'lajak o'qituvchilar uchun ahamiyati shundaki, rejalashtirilgan metodik qaror real kommunikativ harakatga aylantiriladi.

Refleksiya va korreksiya bosqichi esa darsning yakuniy qo'shimchasi emas, metodik faoliyatning davomi sifatida qaraladi. Talaba "dars yaxshi/yomon bo'ldi" kabi umumiy mulohaza bilan cheklanmasdan, oldindan belgilangan mezonlar asosida mazmun va til maqsadlarining muvofiqligi, tanlangan metodning funksionalligi, topshiriqning kognitiv darajasi, pedagogik nutq va feedback samaradorligini tahlil qiladi. Olingan xulosa asosida lesson plan yoki task qayta ishlanadi.

So'nggi tadqiqotlarda CLIL bo'yicha bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligida ham comprehending – analyzing – teaching – evaluating – reflecting – refining kabi qayta ishlash siklining qo'llanishi kuzatiladi. Xususan, 43 nafar bo'lajak CLIL o'qituvchisi ishtirok etgan TPACK asosidagi tadqiqotda lesson planlar, teaching demonstration, peer evaluation va reflectionning birgalikda qo'llanishi texnologik bilimni pedagogik qiymatga ega dars qarorlariga transformatsiyalashga xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan nazariy-metodik tahlil CLIL texnologiyasini zamonaviy metodik yondashuvlar bilan integratsiyalash bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligida muhim imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Bunda integratsiya turli metodlarni bitta dars tarkibiga imkon qadar ko'proq kiritish sifatida emas, ularning pedagogik funksiyalarini belgilangan kasbiy-metodik natijaga muvofiqlashtirish sifatida tushunilishi lozim.

Tadqiqot natijasida CLILning 4C konsepsiyasi konseptual integrativ asos, TBLT, PBL/PBLL, problem-solving, case-based learning, microteaching va raqamli vositalar esa muayyan didaktik vazifalarni

amalga oshiruvchi operatsion vositalar sifatida funksional jihatdan differensiallashtirildi. Shu asosda *maqsadli integratsiya → mazmunni tanlash → metodik yondashuvni funksional tanlash → integrativ topshiriqni loyihalash → kasbiy-kommunikativ amalga oshirish → refleksiya va korreksiya* bosqichlaridan iborat kasbiy-metodik darsni loyihalash mexanizmi taklif etildi.

Mazkur mexanizmning asosiy xususiyati metodik bilimni tayyor shaklda reproduktiv o‘zlashtirishdan kasbiy vaziyatda undan foydalanishga o‘tishni ta’minlashidadir. Bunda ingliz tili faqat o‘rganilayotgan predmet sifatida emas, metodik mazmunni anglash, pedagogik qarorni asoslash va kasbiy faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kelgusida taklif etilgan mexanizm asosida ishlab chiqilgan kasbiy-metodik darslar va integrativ topshiriqlarning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali tekshirish, ularning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi komponentlariga ta’sirini miqdoriy va sifat jihatdan aniqlash tadqiqotning keyingi yo‘nalishini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge, Cambridge University Press, 2010, 184 p.

(2). Mehisto P., Marsh D., Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Oxford, Macmillan Education, 2008, 238 p.

(3). Tuxtayeva N.A. Effective Use of CLIL Technology in Language Teaching. A Pathway to Developing Future Teachers’ Skills. The Lingua Spectrum. 2026, vol. 4, p. 317–323.

(4). Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed., Cambridge, Cambridge University Press, 2014, 410 p.

(5). Sengerbekova B., Smakova K., Avasi V. Project-Based Learning (PBL) in a CLIL Classroom: The Case of Kazakhstan // SDU University Bulletin: Pedagogy and Teaching Methods. 2024, vol. 66, № 1, p. 6–20.

(6). Wu Y.J.A., Chun D.M., Lan Y.J. Cultivating CLIL Preservice Teachers’ CALL Competencies through a TPACK-Based Teacher Training Program. ReCALL. 2026, vol. 38, № 1, p. 22–39.

(7). Zhu Y., Peng B., Shu D. Implementing CLIL Innovation in a Collaborative Teacher Education Ecosystem // TESOL Quarterly. 2025, vol. 59, p. 668–694.

(8). Gao J. Embracing the Integration of TBLT and CLIL: Design, Justify, and Evaluate a Practical EAP Lesson Plan // Educational Innovation Research. 2024.

(9). Tuxtayeva N.A. Effective Use of CLIL Technology in Language Teaching: A Pathway to Developing Future Teachers’ Skills. The Lingua Spectrum. 2026, vol. 4, p. 317–323

(10). Tuxtayeva N.A. The Significance of Integrating Language Skills in English Lessons in the Process of Preparing Students’ Professional Activities. “Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi”, 2025, №6, 854–857 p.

Raximov Gayrat Buvaxanovich (pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b., Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori)

SUN’IY INTELLEKT VA AXLOQ FALSAFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, sun’iy intellektning rivojlanishi bilan yuzaga kelayotgan axloqiy-falsafiy muammolar tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning inson faoliyatining turli sohalariga keng kirib borishi qaror qabul qilish, mas’uliyat, adolat, inson qadri, erkinlik, maxfiylik va axloqiy tanlov kabi masalalarning mazmunini yangicha talqin etishni talab qilmoqda. Maqolada texnologik imkoniyatlarning kengayishi insonning axloqiy javobgarligini kamaytirmasligi, aksincha, sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida mas’uliyatli yondashuvni kuchaytirish zarurligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, axloq falsafasi, axloqiy mas’uliyat, inson qadri, erkinlik, adolat, algoritmik xolislik, maxfiylik, inson huquqlari, axloqiy tanlov, texnologik taraqqiyot, insonparvarlik, raqamli jamiyat.*

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ФИЛОСОФИЯ МОРАЛИ

Аннотация. *В данной статье анализируются этико-философские проблемы, возникающие в связи с развитием искусственного интеллекта. Широкое внедрение искусственного интеллекта в различные сферы человеческой деятельности требует нового осмысления таких вопросов, как принятие решений, ответственность, справедливость, человеческое достоинство, свобода, конфиденциальность и нравственный выбор. В статье обосновывается положение о том, что расширение технологических возможностей не должно снижать нравственную ответственность чело-*